

**IQTISODIY JINOYATLAR TUSHUNCHASI, TURLARI VA ULARNING
HUQUQIY OQIBATLARI**

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.10.2025

Revised: 30.10.2025

Accepted: 31.10.2025

Mazkur maqolada iqtisodiy jinoyatlarning turlari, ularning jamiyat va davlat iqtisodiyotiga ta'siri, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Shuningdek, jinoyatlarning oldini olish yo'llari bo'yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

KALIT SO'ZLAR:

*iqtisodiy jinoyatlar,
Jinoyat kodeksi, bo'yin
tovlash, profilaktika,
korruptsiya, pul yuvish,
huquqiy javobgarlik.*

Kirish.

Zamonaviy global iqtisodiy tizimda iqtisodiy jinoyatlar nafaqat moliyaviy yo'qotishlarni keltirib chiqaradi, balki jamiyatdagi ishonch muhitini, sarmoyaviy barqarorlikni va ijtimoiy adolat tamoyillarini zaiflashtiradi. Shu bois, iqtisodiy jinoyatlar muammosi iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida o'rganilmoqda.¹

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiy jinoyatlar sonining ortishi kuzatilmoqda. 2024-yilda respublikada jami 132 298 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, ularning 62,9 foizi iqtisodiy jinoyatlarga to'g'ri keladi.² Shu bilan birga, korruptsiya uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar soni 2023-yilda 6 500 dan ortiqni tashkil qilgan, bu esa iqtisodiy jinoyatlar profilaktikasining dolzarbligini tasdiqlaydi.³

Tadqiqotning maqsadi — iqtisodiy jinoyatlar mohiyatini tahlil qilish, ularning asosiy turlari va huquqiy oqibatlarini aniqlash, hamda profilaktika va nazorat mexanizmlarini ilmiy asosda taklif etishdan iborat. Shu bois, iqtisodiy jinoyatlar muammosi iqtisodiy

¹ Barile, L., Cullis, J., & Jones, P. (2024). "Optimal Honesty" in the Context of Fiscal Crimes. *Economies*, 12(9), 242. DOI: [10.3390/economies12090242](https://doi.org/10.3390/economies12090242)

² UzDaily, 2024: https://www.uzdaily.uz/en/the-number-of-crimes-in-uzbekistan-in-2024-exceeded-132000-cases/?utm_source

³ Tashkent Times, 2024: https://tashkenttimes.uz/national/14659-uzbekistan-ranks-121th-in-updated-corruption-perception-index?utm_source

xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida o'rganilib, huquqiy jihatdan tahlil qilinishi ham dolzarb hisoblanadi.

Metodlar

Ushbu tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, statistik-tahliliy va nazariy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil orqali O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi XII bobidagi iqtisodiy jinoyatlar moddalarini tahlil qilindi. Statistik tahlilda O'zbekiston Bosh prokuraturasi, IIV hamda Xalqaro tashkilotlar (OECD, Transparency International) ma'lumotlaridan foydalanildi. Nazariy yondashuvda esa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy jinoyatlar kontsepsiyasi asos qilib olindi.

Muhokama va natijalar

Iqtisodiy jinoyatlar — bu iqtisodiy munosabatlar sohasida, mol-mulk, moliyaviy resurslar yoki tadbirkorlik faoliyatiga qarshi qaratilgan huquqbuzarliklar bo'lib, ular davlat yoki jismoniy shaxslarning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazadi. Vincenzo Ruggiero esa iqtisodiy jinoyatlarni “jamiyatning iqtisodiy tizimida ishlab chiqilgan, lekin noqonuniy yo'l bilan amalga oshirilgan moliyaviy harakatlar majmui” sifatida ta'riflaydi.⁴

O'zbekistonda iqtisodiy jinoyatlarning turlari sifatida bir nechta jinoyatlar ajratilgan bo'lib, uni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 3-bo'limida ko'rishimiz mumkin. Bularga:

- o'zgalar mulkini talon-toraj qilish;
- o'zgalar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar;
- iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar;
- xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar;
- tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar.⁵

Ammo ushbu jinoyatlarning barchasi ham O'zbekistonda ko'p sodir etilmaydi. O'zbekistonda iqtisodiy jinoyatlarning eng ko'p uchraydigan turlari sifatida quyidagilarni ko'rsatiladi:

- soliqdan bo'yin tovlash (JK 184-modda);
- pul yuvish (JK 243-modda);
- moliyaviy hujjatlarni soxtalashtirish.⁶

Albatta, jinoyat sodir etildimi, uning subyektiv tomoni bo'lmish motiv va maqsad ham juda muhimdir. Chunki kelgusida xuddi shunday jinoyatlarning oldini olish yuzasidan olib boriladigan targ'ibot va tushuntirish ishlarida ularning qanday paydo bo'lish sabablarini

⁴ Vincenzo Ruggiero, *The Crimes of the Economy: A Criminological Analysis of Economic Thought*, 1st ed. (London: Routledge, 2015), 216, ISBN 9781138915183.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22 sentyabr. <https://lex.uz/docs/-111453#%E2%80%9191262683>

⁶ Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari, 2023 – <https://stat.uz>

bilish lozimdir. Demak, shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy jinoyatlarning ko'payishiga bir nechta omillar sabab bo'lmoqda:

- Huquqiy bilimlarning va iqtisodiy mas'uliyatning yetishmasligi;
- Korruptsiya tizimining inertsiasini;
- Raqamli nazorat tizimining sustligi;
- Soliq siyosatidagi murakkablik.⁷

Ushbu omillar sabab ba'zi insonlar ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etishmoqda. Shu o'rinda iqtisodiy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga beriladigan huquqiy ta'sir choralari ham aytib o'tish lozim. Iqtisodiy jinoyatlar uchun O'zbekiston Jinoyat kodeksida jarima yoki mol-mulkni musodara qilish, muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish, ozodlikdan mahrum qilish kabi jazo turlari belgilangan. Ammo qat'iy jazodan ko'ra jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish samaraliroq ekanligi hozirgi kunda ilgari surilmoqda. Chunki iqtisodiy jinoyatlar davlat manfaatlariga katta zarar yetkazadi. Ularning oqibatlari esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- byudjet tushumlarining kamayishi;
- iqtisodiy ishonch muhitining buzilishi;
- tadbirkorlik faolligining susayishi;
- xalqaro investitsiyalar oqimining kamayishi;
- ijtimoiy tengsizlikning ortishi.

Huquqiy jihatdan esa iqtisodiy jinoyat sodir etgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari asosida javobgarlikka tortiladi. Jazo choralari jarima, mol-mulkni musodara qilish, muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish yoki ozodlikdan mahrum qilish kabi shakllarda qo'llanilar ekan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy jinoyatlar har qanday davlat uchun strategik xavf manbai hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bu jinoyatlar uchun qat'iy jazo choralari mavjud bo'lsa-da, ularning oldini olish va butunlay yo'q qilish uchun faqat jazolash yetarli emas. Shu bois, qonunchilik, texnologiya va ta'lim integratsiyasi orqali kompleks yondashuv zarur. Bunda muammoni hal etish uchun quyidagi tavsiyalarni berib o'tish mumkin:

- qonunchilikni takomillashtirish;
- raqamlashtirishni jadallashtirish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirish;
- profilaktika institutlarini rivojlantirish.

Zero, raqamlashtirish va ochiqlik iqtisodiy jinoyatlar darajasini kamaytiradi, moliyaviy savodxonlikni oshirish esa eng samarali ijtimoiy himoya chorasidir. Shuning uchun ham korporativ javobgarlik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur. Shunday

⁷ Norova, O. A. (2023). Challenges and prospects for the implementation certain international anti-corruption standards in Uzbekistan (in terms of imposition of corporate criminal liability). International Journal of Social Science Research, 6(10). <https://doi.org/10.47814/ijssrr.v6i10.1716>

=====

yondashuvgina iqtisodiy jinoyatlarning ildizini yo‘qotish, ularni tizimli nazoratga olish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barile, L., Cullis, J., & Jones, P. (2024). “Optimal Honesty” in the Context of Fiscal Crimes. *Economies*, 12(9), 242. <https://doi.org/10.3390/economies12090242>
2. UzDaily. (2024). The number of crimes in Uzbekistan in 2024 exceeded 132,000 cases. https://www.uzdaily.uz/en/the-number-of-crimes-in-uzbekistan-in-2024-exceeded-132000-cases/?utm_source
3. Tashkent Times. (2024). Uzbekistan ranks 121th in updated Corruption Perception Index. https://tashkenttimes.uz/national/14659-uzbekistan-ranks-121th-in-updated-corruption-perception-index?utm_source
4. Ruggiero, V. (2015). *The Crimes of the Economy: A Criminological Analysis of Economic Thought* (1st ed., p. 216). London: Routledge. ISBN 9781138915183
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. (1994, 22 sentyabr). <https://lex.uz/docs/-111453#%E2%80%911262683>
6. Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). Statistical reports. <https://stat.uz>
7. Norova, O. A. (2023). Challenges and prospects for the implementation of certain international anti-corruption standards in Uzbekistan (in terms of imposition of corporate criminal liability). *International Journal of Social Science Research*, 6(10). <https://doi.org/10.47814/ijssrr.v6i10.1716>